

O‘zbek tilining chet mamalakatlarda o‘qitilish va o‘rganilish tarixiga doir

O‘zbek tili va adabiyotini tarixiy jihatdan o‘rganish mustaqillik davrlarida Respublikamizda keng quloch yoydi. Chunki bu davrda barcha sohalar kabi tilshunoslik tarixini o‘rganish davr talabi sifatida muhim o‘rin egallay boshladi. Shuni ham qayd etish lozimki, bu masalaga xorijiy davlatlardagi turli sabablar bilan O‘zbekiston hududidan turli sabablarga ko‘ra, o‘zga yurtlarga ko‘chib ketgan xalqimiz vakillari ham zo‘r qiziqish bilan qaray boshladilar. Jumladan, yevropaliklar, hatto Germaniya, AQShgacha bo‘lgan okean orti davlatlarida o‘zbekshunoslik bo‘yicha ko‘pgina ishlar qilina boshlandi. Masalan, Germaniya va O‘zbekiston davlatlari bir-biridan uzoq masofada joylashgan bo‘lsa-da, u yerda o‘zbek xalqi va uning madaniyati, tarixi, tili va adabiyotini o‘rganish rivojlana boshladi.

Xususan, bu borada Germaniyalik professor Annamariya von Gabain ulkan ishlarni qildi. Qadimiy turklar va ularning tillari haqida ko‘plab ishlar qilgan hamda asarlar yozgan professor Annamariya von Gabain 1993-yilning 15-yanvarida Berlinda hayotdan ko‘z yumdi va bu turkologiya uchun katta yo‘qotish bo‘ldi.

Profesor Annamariya von Gabain 1901-yil 4-iyulda Morchingenda tavallud topgan. U o‘rta ta’lim bilimlarini egallagach, Berlin universitetining taniqli sinologi Otto Frankenning qo‘l ostida faoliyat yuritgan, so‘ng faoliyatini Turkolog Vilxelm Bangning qo‘l ostida davom ettirgan. “Turfon” arxeologik qazilmalarida topilgan uyg‘ur qo‘lyozmalari ustida ishlash uchun Bangga, sinolog Annamariya von Gabainning ishlanmalari yordam berdi. Uyg‘ur yozuvi ishlanmalari Bang va Gabainning o‘zaro hamkorliklari mevasidir. Bu yozuvlarni Bang va Gabain 6 bo‘limdan iborat bo‘lgan “Türkische Turfantexle” (1929-1934) nomli asarini nashr ettirgan. “Altaytischer Index zu den fünf ersien Slücken der türkisehen Turfaueztz” (1931) nomli asar ham mualliflar hamkorligida yaratilgan.

1934-yilda Bangning o‘limi, Gabainning uyg‘ur yozmalari ustida olib borayotgan ilmiy izlanishlarini ancha yuksalishiga olib keldi. Berlin Akademiyasidagi qadimgi turk yozma ishlanmalarini katta g‘ayrat bilan davom

ettirgan Gabain ketma-ket yangi-yangi tadqiqotlar ustida jiddiy izlanishlar olib borilganligini ham alohida ta'kidlash lozimdir. (1954; IX, 1958, V.Vinter va X, 1959, T.Kovalski bilan birgalikda). Bulardan boshqa, F.V.K. Mullerning 1931-yil "Uyg'urcha" nomli kitobining IV qismi nashr etildi.

Annamariya von Gabainning bu sohada juda ko'plab asarlari mavjud: (Jahrbücher X, 1930, V.Bang bilan birgalikda); Die Uigurische Übersetzung der Biographie Hüen-tsangs (1935); Briefe der uigurischen Hüen-tsang Biographie (Sitzungsberichte der Preussischen Akademie der Wissenschaften 29:371-415, 1938); Alt-türkisches Schrifttum (1950); Die Frühgeschichte der Uiguren (1952).

Gabainning qadimgi turk va uyg'ur olamidagi eng katta asari "Alt-türkische Grammatik" (Leipzig 1941, 2.bas. V.Viesbaden 1950, 3.bas. Wiesbaden 1974)dir. Qadimgi turk tillaridan tashqari Gabain turk dialektlari ustida ish olib borgan. Uning bu sohada yozgan eng buyuk asari "Özbekçe grameri" (Özbekische Grammatik, 1945)dir. Phühögiae Turcicae Fundamenta nomli ko'plab fundamental qo'lyozmalari nashr etilgan. Das Aitürkische (I, 1959); Die Sprache des Codex Cumanicus (I, 1959); Alt-türkische Schreibkultur und Druckerei (11, 1964); Die aitürkische Literatur (II, 1964); Die komanische Literatur (II, 1964)lardir.

Bulardan tashqari, "Radloff" Index der deutschen Bedeutungen, zusammengestellt und herausgegeben unter Leitung und Redaktion von Annamariya von Gabain und V.Veenker (Vsbaden 1972) nomli asari Gabainning turk leksografiyasiga qo'shgan yana bir hissasidir. Gabain, 1935-1937-yillarda Anqaradagi "Til va tarix-geografiya" fakultetida sinolog-professor bo'lib ishlagan. Anqaradan ketgach Gabain Berlin universitetida turk tili o'qituvchisi bo'lib ishlaydi va bu vazifani ikkinchi jahon urushi oxirigacha davom ettiradi. Urushning tugash arafasida u Hamburg Univesitetining turk tillari professori bo'lib ishlay boshlaydi. Uyg'ur olamidagi ijodi bilan mashhurlikka erishgan Gabain, 1957-yil Turk tili muassasalari a'zosi, 1989-yilda faxriy a'zosi safida faoliyat yuritdi.

Gabainni o'quvchilari va hamkasblari Maryam opa deb murojaat qilishar edi. 1961-yilda 60 yoshni qarshi olgan Maryam opaga hamkasblari va o'quvchilari "Al Bitig" nomli sovg'a taqdim etdilar (Ural-Altaische Jahrbücher). 80 yillik

yubileyiga esa Gabain uchun hamkasblari va o'quvchilari tomonidan sovg'a tariqasida unvon taqdim etildi.

Gabain 1952-yilda "Sotidas Uralo-Altaica'nin" tashkilotida alohida o'rin egallagan. 1964-1976-yillarda xalqaro prezidentligini qo'lga kiritdi, shuningdek qo'llanma chiqarishga o'z hissasini qo'shdi. Bu sohadagi Gabainning amalga oshirgan ishlarini "Societas Uralo-Altaica" yuksak baholab uni o'z a'zolidigiga saylaydi.

Xulosa qilib aytganda, Annamariya von Gabainning o'limi Germaniya turkologiyasi uchun og'ir yo'qotish bo'lsa-da, uning turkiy tillarni o'rganish jarayoniga qo'shgan hissasini ilm ahli alohida qayd etib kelmoqda. Haqiqatdan ham, professorning o'limi nafaqat Germaniya turkologiyasi uchun, balki butun dunyo turkologiyasi uchun ham ulkan yo'qitish bo'ldi, ammo uning qalamiga mansub asarlar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotgan emas. Shuning ham uning ma'naviy merosi, turkiy tillarning tarraqqiyotiga haqidagi nazariy qarashlari bugungi kun uchun ham asosiy manbalardan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emasdir.